



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 10-iyul

Nº 2150

O'zbekiston Respublikasining ayrim sudlariga sudyalarni tayinlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 69-72-moddalari va "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunining 7, 17-moddalariga muvofiq:

Siddikov Muzaffarjon Ibroximovich – sudyalik vakolati muddati davriga Farg'ona viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Quva tuman sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Farg'ona viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Quva tuman sudining tergov sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Raximov Avazbek Kobiljonovich – sudyalik vakolati muddati davriga Farg'ona viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Farg'ona shahar sudining tergov sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Farg'ona viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Quva tuman sudining raisi lavozimidan ozod etilsin;

Ismoilov Odiljon Muxamadjonovich – sudyalik vakolati muddati davriga Farg'ona viloyat sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Farg'ona viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Rishton tuman sudining raisi lavozimidan ozod etilsin;

Anvarova Dildora Anvarovna – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent shahar jinoyat ishlari bo'yicha Mirobod tuman sudining tergov sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent shahar jinoyat ishlari bo'yicha Shayxontohur tuman sudining tergov sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Xolbayev Kobiljon Kuzyevich – sudyalik lavozimida bo'lishning navbatdagi o'n yillik muddatiga Toshkent shahar jinoyat ishlari bo'yicha Shayxontohur tuman sudining tergov sudyasi lavozimiga tayinlansin;

Yoriyev Anvar Komilovich – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha Yuqorichirchiq tumanlararo sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Sirdaryo viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha Guliston tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

To'rayev Bekzod Baxshullayevich – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Toshkent shahar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi raisining o'rinbosari lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent shahar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Saidov Abror Jumaqulovich – sudyalik vakolati muddati davriga Andijon viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Jalaquduq tuman sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent shahar jinoyat ishlari bo'yicha Olmazor tuman sudining raisi lavozimidan ozod etilsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov